

Tadqiqot.UZ

**ЎЗБЕКИСТОН
ОЛИМЛАРИ ВА
ЁШЛАРИНИНГ
ИННОВАЦИОН
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ТАДҚИҚОТЛАРИ
МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2021

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



31 ОКТЫАВР
№33

CONFERENCES.UZ

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 33-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
3-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
33-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-3**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
33-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-3**

ТОШКЕНТ-2021



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2021]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 33-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 октябрь 2021 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2021. - 16 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна (Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети)

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чариеv Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛANIШЛАР

1. Xayitmurod Xurramov

OKS SIVILIZATSIYASINING XAYOLIY MOTIFLARI HAQIDA YANGI
MULOHAZALAR.....7

2. Urozboyev Bobomurod

TARIX FANI O'QITILISHIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA INTERFAOL
USULLARDAN FOYDALANISH.....11

3. Бобоҷонова Диլғуза, Бобоҷонова Дилрабо

ХОРАЗМДА ТАСВИРИЙ САНЬАТ ВА ХАЙКАЛТАРОШЛИКНИ ВУЖУДГА
КЕЛИШИ12

4. Бобоҷонова Диљузса, Бобоҷонова Дилрабо

XX АСР БОШЛАРИДА ХОРАЗМДА ХАЛҚ ТАЪЛИМИ14



ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

OKS SIVILIZATSIYASINING XAYOLIY MOTIFLARI HAQIDA YANGI MULOHAZALAR

Xayitmurod Xurramov

Tayanch doktorant

Termiz davlat universiteti, O'zbekiston

Annotatsiya. Tadqiqotda Oks sivilizatsiyasi yodgorliklaridan topilgan artifaktlarda o'z aksini topgan xayoliy obrazlar yozma manbalar asosida tahlil etildi. Zoomorfik motiflar Yaqin Sharq sivilizatsiyasi motiflari bilan o'zaro taqqoslandi.


Kalit so'zlar. Motif, silindr muhr, lola, efedra, sopol bezaklari, amulet.

Baqtriya Margiana Arxeologik Madaniyati (BMAC) yoki Oks sivilizatsiyasi qoldiqlarini qazish ishlari nisbatan qisqa vaqt amalga oshirilgan bo'lishiga qaramay, uning ko'plab topilmalari ko'plab tadqiqot materiallari tufayli allaqachon ma'lum. Uning moddiy madaniyati juda xilma-xil va o'zgacha ko'rindi. Bunga ajablanmasa ham bo'ladi, chunki, uning gullab-yashnashi miloddan avvalgi III ming yillikning oxiri miloddan avvalgi II mingyillikning boshlariga to'g'ri kelgani holda, qo'shnilar Yaqin Sharq, Eron va Hind sivilizatsiyalari bilan yaqindan aloqa o'rnatgan. Oks sivilizatsiyasi moddiy madaniyati o'zining xayoliy obrazlar tasvirlangan artifaktlari bilan alohida ajralib turadi. Turkmaniston Kopettog' etaklarida rivojlangan madaniyat hisoblanmish Anov-Namozgohdan topilgan antromorfik haykalchalar, kulochilik buyumlari bezaklari va muhr-amuletlarda tasvirlangan bir qator motiflar tarixchilarga xayoliy obrazlar mavzusiga alohida urg'u berishga sabab bo'lgan[1]. Ko'rib turganimizdek, bu tadqiqot ham BMAC jamiyatini yaxshiroq tushunish uchun muhim bo'lgan elita tasvirlari va boshqa xalqlar orasidagi farqni ta'kidlaydi. Oks sivilizatsiyasining ikonografik motiflari masalasi bilan ko'proq E.Antonova tadqiqotlar olib borgan. Janubiy Turkmanistondagi Anov-Namozgoh madaniyati yodgorliklaridan topilgan gildan yasalgan antromorfik shakllar bu yodgorliklarni davrlashtirishda kata ahamiyatga ega bo'lgan[2]. Bu tasvirlar shundan dalolat beradiki, ko'p asrlar davomida, mintaqaga aholisi an'anaviy ramzlarni saqlab qolgan va dunyo xalqlari madaniyatiga o'z ta'sirini o'tkazgan. Eneolit davri boshida, hali ijtimoiy iyerarxiya belgilari yuzaga kelmagan davrlarda ayollar jamiyatni boshqarishda faol bo'lgan. Bu holat ushbu yodgorliklardan topilgan o'z uyida o'tirgan holda tasvirlangan ayol haykal shakllarida o'z aksini topgan[3]. Bu shakllarga to'g'ri yondashilsa bu haykallar "ona mabudalar" ma'nosini beradi. Namozgoh III davri Mesopotamiyadagi Uruk ekspansiyasi va shahar inqilobi davriga to'g'ri keladi. U yerda birinchi shahar-davlatlar va yozuv paydo bo'lgan. Ayni shu davrda Mesopotamiya va qo'shni o'lkalar bilan madaniy va savdo aloqalari yaxshi rivojlangan. O'tirgan yoki turgan holatda tasvirlangan ayol shakllari keng elkali va tor belli, ba'zilari bosh kiyim yoki soch turmag'i bilan ifoda etilgan. Ayni shu davrda Ilonlitepa yodgorligi erkaklar haykalchalarini ham paydo bo'lganligini ko'rsatib, ular jami hajmning 3-5 %ini tashkil qilganli haqida tadqiqotlar o'tkazilgan[4].

Qizig'i shundaki, erkaklar tasviri ham ko'krakli qilib tasvirlangan. Tadqiqotchilar bu holatni izohlar ekan, ushbu davr xalqlari ajdodlarini ikki jinsli deya tasavvur etishgan degan taxminni ilgari surishgan[3]. Bu ajdodlar esa urug' jamoasining himoyachilari bo'lishi mumkin. Ularning tasavvuricha bu shakllar unumdarlik va hosildorlik ramzi bo'lgan ona mabudalardir. Bronza davri ko'plab yangi ixtiolar bilan boshlanadi. Metalga ishlov berish texnologiyasi rivojlanadi, kulochilik g'ildiragi paydo bo'ladi, sopollar uslubi o'zgaradi va shu bilan birga antromorfik shakllarda ham kata o'zgarishlar bo'ladi. Bular: butunlay tekis, inson shakllari endi yaproqlar va daraxtlar bilan qurshalgan holatda tasvirlanadi. Ba'zida ayol haykalchalarini turli o'simliklar bilan




birgalikda tasvirlanadi. Bu shakllar o'simlik, suv va yer xudolari tasviri bilan birga uchraydi(1-rasm). Bu ramzlar ko'pchilik tadqiqotchilar fikricha, Mesopotamiya xudolarining analoglari sifatida Oks sivilizatsiyasi hududiga kirib kelgan[5]. Aslida idishlarga chizilgan shakllar mahalliy eneolit davriga tegishli ekanligini asoslovchi tarixchilar ham topiladi[6]. Arxeologiyada, xalq san'atida bo'lgani kabi, universal motiflar muntazam ravishda uchrab turadi va ularni hechkim to'liq o'rgangan emas[7].



1-rasm.Namozgoh VI shakllari

Ikkinci o'zgarish sopol buyumlar bezaklarida kuzatiladi. Tadqiqotchilar fikricha Namozgoh V soppollari yasalish jihatidan Geoksur soppollariga juda o'xshash. Ularda uchraydigan motiflar xuddi Oltintepadan topilgan soppollardagi motiflar bilan bir xil ko'rinishga ega[8]. Bu davr haykalchalarida bezakli motif sifatida ramzlarning ishlatalishi tarixchilar tomonidan bir necha marotaba muhokama qilingan[9]. Yana bir motiflar xilma-xilligi muhr-amuletлarda o'z aksini topgan. O'rta bronza davriga oid Oltintepa yodgorligi o'rganilganda, undan topilgan muhr-amuletлarning to'rtdan bir qismi enolit davridagidek xoch ko'rinishida bo'lgan[10]. BMAK hududidan minglab muhr va amuletlar topilgan bo'lib, ularning katta qismi V.I.Sarianidi tomonidan allaqachon analoglashtirilgan[11]. Bu katalog 1800 ga yaqin muhrlarni o'z ichiga olib, ularning 1500 tasi Afg'oniston hududidagi noqonuniy qazishmalarda to'plangan, qolgani O'zbekiston va Turkmanistonda olib borilgan muntazam qazishmalarda to'plangan bo'lib, hozirda turli kolleksiyalarda saqlanadi. Muhrлarda zoomorfik hayvonlar tasviri, terrakkota shakllari, gullar tasviri - ko'knor, lola va efedra kabi tasvirlar ko'p uchraydi (2-rasm).



2-rasm. (1) Tosh qorishmali shakl, Gonur; (2) Terrokota shakli; (3) Trans Elam silindr muhri, Gonur; (4) Tepa-Yahyo

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Antonova, E.V. 2011. "K interpretatsii veshchestvennyh istochnikov: sinkhronija i diakhronija" [On the interpretation of material sources: synchrony and diachrony]. *Vestnik Drevnej Istorii* 4: 8–29.
2. Solov'eva, N.F. 2005. Antropomorfnye izobrazhenija i kul'tovye kompleksy Juzhnogo Turkmenistana pory srednego eneolita (po materialam raskopok Ilgynly-Depe). Avtoreferat kand. dissertatsii [Anthropomorphic images and religious complexes of Middle Chalcolithic southern Turkmenistan (from excavated materials of Ilgynly Depe)]. Abstract of PhD thesis. St. Petersburg: History of Material Culture Institute.
3. Antonova, E.V. 1990. Obrjady i verovanija pervobytnykh zemledel'tsev Vostoka [Rituals and beliefs of the ancient farmers of the East]. Moscow: Nauka.
4. Berezkin, Y.E. 1994. "Gorod masterov' na drevne vostochnoj periferii. Planirovka poselenija sotsial'naja struktura Altyn-depe v III tys. do n.e." [A "city of craftsmen" at the periphery of the ancient East: settlement layout and social structure at Altyn Depe in the 3rd millennium BC]. *Vestnik Drevnej Istorii* 3: 14–36.



5. Masson, V.M. and V.I. Sarianidi 1973. Sredneaziatskaja terrakota epokhi bronzy. Opyt klassifikatsii i interpretatsii [Central Asian terracotta of the Bronze Age: an attempt of classification and interpretation]. Moscow: Nauka.
6. Antonova, E.V. 1972. "K voprosu o proiskhozhdenii i smyslovoj nagruzke znakov na statuetkakh anauskoj kul'tury" [Questions on the origin and on the semantics of the signs on statuettes of the Anau culture]. Sovetskaja Arkheologija 4: 7–18.
7. Nekljudov, S.Ju. 1977. "O funktsional'no-semanticeskoy prirode znaka v povestvovatel'nom fol'klore" [On the functional-semantic nature of the sign in narrative folklore]. In Semiotika i khudozhestvennoe tvorchestvo [Semiotics and artistic creativity], ed. Ju.Ja. Barabash Moscow: Nauka, pp. 193–228.
8. Kircho, L.B. 1990. "Drevnejshie pechati i ikh ottiski iz Altyn-Depe" [The most ancient seals and their prints from Altyn Depe]. Sovetskaja Arkheologija 3: 176–184.
9. Antonova, E.V. 1981. "Ornamenty na sosudakh i znaki na statuetkakh anauskoj kul'tury (k probleme znamenija)" [Ornaments on pottery and signs on statuettes of the Anau culture: problem of their meaning]. In Srednjaja Azija i ee sosedi v drevnosti i srednevekov'e [Central Asia and its neighbors in ancient and medieval times], ed. B. Gafurov and B. Litvinskij. Moscow: Nauka, pp. 5–21.
10. Masson, V.M. and Y.E. Berezkin (eds.) 2005. Khronologija epokhi pozdnego eneolita i srednej bronzy Srednej Azii (pogrebenija Altyn-depe) [Chronology of the Chalcolithic and Middle Bronze Age (Altyn Depe burials)]. Vol. 16, Trudy Instituta Istorii Material'noj Kul'tury RAN. St. Petersburg: Nestor-Istorija.
11. Sarianidi, V.I. 1998. Myths of Ancient Bactria and Margiana on Its Seals and Amulets. Moscow: Pentagraphic Ltd.



TARIX FANI O'QITILISHIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH

Urozboyev Bobomurod

Xorazm viloyati Yangibozor tumani
22 –son umumiy o'rta ta'lif maktab tarix fani o'qituvchisi
e-mail: nasiba.xalmuratova@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisda umumiy o'rta ta'lif maktablarda tarix fani o'qitilishida yangi zamонавија interfaol usullar va innovatsion texnologiyalardan foydalanishning roli haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: innovatsiya, interfaol usullar, pedagogik texnologiya, axborot, xotira, ta'limiyo aloqalar, jamoaviy o'yin.

Innovatsiya (inglizcha innovation) –yangilik kiritish, yangilik demakdir. Innovatsion texnologiyalar - pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol usullardan foydalilanildi. Bu orqali bugungi kun har bir fan o'qituvchisi oldida turgan o'quvchilarning ilmiga bo'lgan qiziqishlarini o'stirish, ularning tasavvurini kengaytirish hamda bilim samaradorligini oshirishdek muhim vazifani bajarib, muvaffaqiyatga erishish uchun zamin yaratildi. Dars samaradorligining muhim shartlaridan biri bu - o'qituvchi va o'quvchilarning butun dars jarayonida faol ishtiroy etishidir. Bu borada yangi pedagogik texnologiyalar va innovatsion metodlardan, qiziqarli jamoaviy o'yin usullaridan unumli foydalanish muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, tarix fani darslarida o'quvchilar guruhlarda jamoa bo'lib hamkorlikda ishlashi ularning o'zaro fikr almashish, bir-birining fikrini hurmat qilish, o'z fikrini bayon qilish, ma'lumotlarni eslab qolish, mantiqiy fikrlash qobiliyatlarining o'stirilishida katta ahamiyat kasb etadi. Misol tariqasida quyida ikkita jamoaviy o'yin usulini keltirib o'tamiz.

Ma'lumki, tarix fanining asosini ma'lumotlar tashkil etadi. Ma'lumotlatlarni eslab qolish ba'zi o'quvchilar uchun qiyinchilik tug'diradi. **"Mavzuga zamin"** hamda **"T.A.R.I.X."** o'yinli usullari xotirani mustahkamlashda ancha qulaylik yaratadi. **"Mavzuga zamin"** usuli, ayniqsa, 5-11-sinf tarix fani darslarida foydalanish maqsadga muvofiq. Avvalo sinfda 5/6 o'quvchidan iborat guruuhlar tuzilib, guruhlarni mavzuga mos nomlash o'quvchilarning o'zlariga havola qilinadi. Har bir guruhga o'tilgan mavzu yuzasidan tuzilgan 5-6 savoldan iborat tarqatmalar, 5-6 savollli crossword yoki 5-6 savoldan tuzilgan test topshiriqlari beriladi va o'quvchilar jamoa bo'lib ishlashlari kerak bo'ladi.

"T.A.R.I.X."- bu metod jadval assosida to'ldiriladigan jamoaviy o'yin bo'lib, T-test savollari, A-anagrammalar, R-raqamlardagi voqealar, I-ikki tarixiy jarayonni solishtirish, X-xulosa kabi qismlardan iborat jadvalni o'quvchilar guruhlarda ishlab birgalikda to'ldirish orqali mavzuning asosiy mazmunini keltirib chiqarishadi.

Darsni qiziqarli jamoaviy o'yinlar hamda interfaol usullarda tashkil etishning afzalligi shundaki, bu jarayon o'qitish mazmuni o'zlashtirishga olib keladi, o'quvchi va o'qituvchi o'rtasida ta'limiyo aloqalar o'rnatiladi, ta'lif jarayoni turli xil ko'rinishlarda kechadi, o'zaro axborot berish, olish, qayta ishslash orqali o'quv materiali yaxshi esda qoladi, o'qish jarayoniga ijodiy yondashuv hamda tanqidiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlar rivojlantiriladi. Ammo interfaol darslarni tashkil etishda o'quv-biluv jarayoniga ko'plab vaqt sarflanishi, barcha o'quvchilarni birdek nazorat qilish imkonini bo'lmashligi, guruhlarda kuchsiz o'quvchilarning ishtiroyi tufayli kuchli o'quvchilar ham past ball yoki past baho olish kabi salbiy holatlар ham kuzatiladi. Bunday sharoitda fan o'qituvchisi yuksak rivojlangan fikrlash qobiliyatiga, muammolar bo'yicha to'g'ri mushohada yuritish hamda o'z vaqtida yecha oladigan qobiliyatga ega bo'lmoq'i lozim.

Adabiyotlar:

1. Tarix fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalar.
O'quv-uslubiy qo'llanma. Jizzax. 2014
2. Tarix darslarida qiziqarli o'yinli usullardan foydalanish. SHUHRATBEK.UZ
3. <http://library.ziyonet.uz>



ХОРАЗМДА ТАСВИРИЙ САНЬАТ ВА ХАЙКАЛТАРОШЛИКНИ ВУЖУДГА КЕЛИШИ

Бобожонова Дилфуза, Бобожонова Дилрабо
Хива шаҳар 8- сон ўрта мактабнинг
бошланғич таълим ўқитувчилари

Аннотация: Мақолада муаллифлар тасвирий санъат ва хайкалторошлик санъатининг қадим Хоразмда вужудга келиш тарихини ёритиб ўзларининг фикр муроҳазаларини баён қилишган.

Калит сўзлар: Марказий Осиё, Қадимги Хоразм, Авесто, Тупроқ қалъя, шоҳлар зали.

Хоразм–Марказий Осиёning Турон пасттекислигига Амударё делтасида жойлашган қадимий тарихий ўлқадир. Мил. авв. I минг йилликнинг бошларига келиб, Марказий Осиёning нисбатан ривожланган худудларида илк давлат уюшмалари пайдо бўлди. Мил. авв. IX–VIII асрларга келиб, Бақтрия (Жанубий Ўзбекистон, Жанубий Тоҷикистон, Шимолий Афғонистон) худудларида ҳарбий аҳамиятга эга бўлган сиёсий бирлашмалар ташкил топади. Ўша даврда Марғиёна ва Суғдиёна қадимги Бақтрияниг айрим қисмлари бўлганлиги ҳақида маълумотлар бор. Бақтрия Шарқдаги энг муҳим ҳарбий ва иқтисодий марказлардан бири бўлиб, аҳолининг, қудратли шаҳарлар ва қалъаларнинг кўплиги, табиий хом ашёга бойлиги, муҳим марказий савдо йўллари чорраҳасида жойлашганлиги, хунармандчиликнинг равнақи шундан далолат беради. Мил. авв. VIII–VI асрларда Амударёning ўрта оқими қисмидан Оролга яқин бўлган ерларда (Шимолий ғарбий Ўзбекистон, Шимолий ғарбий Туркманистон) худудларида Хоразм номи билан аталувчи давлат вужудга келган. Бақтрия ва Хоразм давлатининг худудий чегаралари ўрта Амударё оқимидаги ерлар орқали ўтган. Хоразмнинг йирик суғориш иншоотлари мил. авв. VI–V асрларга оидdir. Ўлкада бу даврларга оид кўпгина шаҳар ва қишлоқлар харобалари очиб ўрганилган. Улардаги топилмалар, манзилгоҳлар, хом гишт ва пахсадан қад кўтарган бўлиб, аҳоли дехқончилик ва чорвачилик билан шуғулланган. Хоразмшунос олим С.П. Толстовнинг таъкидлашича, ўлканинг эрамиздан олдинги IV–III минг йилликлардан то эрамизнинг IV асргача ўтган 4500 йиллик тарихи қадимги Хоразм тараққиётини кўрсатувчи даври ҳисобланади. Бу давр Хоразм маданияти тарихида алоҳида аҳамиятга эгадир. Хоразмда яшаган ҳалқларнинг энг қадимги даврга оид ёзма ва оғзаки адабиёт наъмуналари, тарих китоблари, Беруний асарлари орқали етиб келган. Айниқса, антик дунё тарихчилардан Геродот, Ктесий, Эсхил, Еврипид, Аристотель, Страбон, Ёкут ал–Ҳамавий каби муаллифларнинг асарларида, кўхна Хоразмда яшаган ҳалқларнинг афсона, ривоят ва ҳикоятлари келтирилган. Хоразм мозийдан бошлаб адабиёти, санъати ва маданияти ривож топган юрт бўлиб, унинг ўз тили ва ёзуви бўлган. Хоразм ёзуви янги эрадан аввалги IV–II асрларда, яъни бундан 2400-2200 йил муқаддам пайдо бўлган. Ёзувнинг пайдо бўлиши билан ёзма адабиёт вужудга келган. Эрамизнинг II асри охири ва III асри бошларида Арсамух I ва унинг хотини зарб қилдириган тангаларда Хоразм ёзуvida ўз қаллигининг исмини ёздириган. Тупроқ ҳаробаларидан кичкина чўпхат ҳам топилган. Унда қадимги Хоразм алифбосининг белгилари билан қора тушда ёзилган тўртта сўздан иборат ёзув бор эди. Хоразмда Исломдан илгари Зардўштий динининг маҳаллий варианти ҳукмрон дин ҳисобланган. Тарихчи ва сайёҳ Маркварт зардуштийликнинг бош худоси Ахурамазда томонидан яратилган, дунёда аҳоли яшаган дастлабки ўлка–“Арианам–Вайжа”ни Хоразмдан излайди, бу ҳақиқатга яқин. Марквартнинг афсонасига кўра Хоразм энг шимолий ва совуқ ўлка бўлиб, ривоятга караганда. зардўштийликнинг асосчиси афсонавий пайғамбар Зардўшт совуқ жойда, яъни ўша ерда туғилган эмиш. Марквартнинг бу фикрини Бартольд, С.П. Толстов ва бошқа олимлар ҳам қувватлайдилар. Бу эса шу диннинг муқаддас китоби “Авесто”нинг Ватани ҳам Хоразм деган хulosani чиқаришга имкон беради.

“Авесто” Шарқий Эрон ва Марказий Осиёда истиқомат қилувчи қадимий қабилаларнинг ижтимоий тузуми, диний қарашлари ҳамда жамиятда рўй бераётган табакаланиш ҳақида қимматли маълумотлар беради. Хоразм ҳукмдорлари ўзларини Хоразмшоҳ унвони билан аташган. Хоразм давлатига афсонавий подшо Сиёвуш асос соглан, у асос соглан сулола эрамизнинг 305 йилигача ўлқада ҳукумронлик қилган. Эр. ав II асрда Хоразмда илк бор мис ва кумуш тангалар зарб қилинган, Хоразм тангаларини олд томонида ҳукумдорнинг



сиймоси тасвирланган. Тангалардаги ҳукумдорнинг тожи кийик шохларига ўхшаш бўлиб, танганинг терс тамонида эса суворийнинг тасвири, теварагида Хоразм ёзувидаги битиклар бор. Баъзи бир тадқиқотчилар Абу Райхон Берунийнинг маълумотларига асосланиб, тангада тасвирланган сиймо Хоразмшохлар сулоласининг асосчиси суворий тангри «Сиёвуш»деса, бошқалар бу тасвирда подшо–тангри берилган дейдилар. Тасвирий санъат намуналари акс қилган тангалар хозирги кунларгача жаҳон музейлари экспозицияларини безаб турибди. Ўзбекистон худудларидағи энг қадимги давлатлар хақида зардустийларнинг муқаддас диний китоби «Авесто», Аҳамонийларнинг миҳҳат ёзувлари (Бехистун, Накши Рустам, Суза, Персепол) маълумотлар беради. Қадимги юононлар. Бу мамлакатни «Хоразмия» («Хурузмия») деб атаганлар. Миҳҳат ёзуvida «Уварезмия», «Зенд-Авесто»да «Кайризау» ёки “Хваризем” деб ёзилган: араблар «Хорарезм» (Хуворезм) деб атганлар. Хитой манбларида эса «Холи-ш-ми-кич» деб берилган. Хоразм воҳасидаги антик даврга, айникса, кушонлар даврига оид маконлардан топилган кўплаб моддий ашёлар- сополдан ясалган фил ва маймуннинг сапол ҳайкаллари, Тупроққалъя саройидаги “Аскарлар” зали деворидаги тасвиirlар, тақинчоқлар(мунчоқ) ва бошқа буюмлар Хоразм воҳасининг ҳам Ҳиндистон билан алоқаларидан далолат беради. Бу алоқалар Бақтрия худуди ва Амударё сув йўли асосий транзит алоқа йўли сифатида катта ўрин тутган. Ҳиндистон ва Эронда ишлаб чиқилган маҳсулотларни қўйи Волга бўйидаги Сарматлар қўрғонларидан топилиши Хоразм воҳасининг транзит худуд сифатидаги аҳамиятидан далолат беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Мадрахимов О. Хоразм сўзининг маънолари/ “Фан ва турмуш”, 1974, 2-сон. Фуломов Я.Ф. Хоразмнинг сугорилиш тарихи. — Т.: “Фан”, 1959. 168, 234, 152, 324 бетлар.
2. М.Абдуллаев, Б.Садуллаев “ Қадимги Хоразм” музей экспозициясининг экскурсия матни 2020 й. Хива.
3. Д.Бобоҷонов, М.Абдуллаев. “Хоразм амалий санъати усталари”, Хоразм Маъмун академияси. Хива-2010 йил, 8 бет.



ХХ АСР БОШЛАРИДА ХОРАЗМДА ХАЛҚ ТАЪЛИМИ

Бобожонова Дилфуз, Бобожонова Дилрабо.
Хива шаҳар 8- сон ўрта мактабнинг
бошланғич таълим ўқитувчилари

Аннотация. Мақолада Хоразмда ХХ аср бошларида халқ таълим тизимидағи ислоҳатлар ва уларнинг ривожланиш тарихи ёритилган. Мақолада мактаблар сони ва Хивада очилган янги мактаблар ҳақида маълумотлар келтирилган.

Калит сўзлар: билим, мактаб, дунёвий фанлар, ўзбек тили, интернат, нозир.

Мулла Бекчон Раҳмонов Хоразм Халқ Шоролар Жумхурияти Маориф мудири, шу билан бирга маориф нозирлигининг маҳсус топшириғи билан Хоразмдаги мавжуд 1500 га яқин эски мактаблар ва 130 мадрасаларнинг ўкув дастурига қисман ўзгаришлар киритилди, диний билимлар билан бир қаторда тарих, жўғрофия, арифметика, ўзбек тили ва бошқа дунёвий фанларни ҳам ўқитиш ҳақида кўрсатма берилди. Бу ҳаракатлар нафақат Хоразмда, балки қўшни республикаларда ҳам бошланган эди. Туркистонда "илм-маърифат куйчиси" деб эътироф қилинган Маҳмудхўжа Беҳбудий ўзининг фикрларини шундай баён қиласди. "Ўртадан нифоқни кўтарингиз! Туркистон болаларини илмсиз кўйманглар! Ҳаммага озодлик йўлини кўрсатингизлар! Озодликни тезлик ила юзага чиқарингизлар! Бизлар ул чоқда қабримизда тинч ётурмиз!".

1923 йил ёзига келиб XXШЖдаги янги типдаги бошланғич мактаблар сони 29 га етди. Шунингдек, 9 та мактаб интернат ва 3 та ихтисослашган намуна мактаблари фаолият кўрсатган. Уларда жами 1600 нафардан ортиқ ўкувчи ёшлар билим олдилар.

Республика халқ маорифи катта ёшдаги аҳоли ўртасидаги саводсизликни тугатиш масаласига ҳам алоҳида эътибор берди. Саводсизликни тугатиш мактабларига 17 ёшдан 35 ёшгача бўлган эркаклар жалб қилинди. Шаҳар ва қишлоқларда саводсизликни тугатиш курслари ва мактаблари очилди. Ушбу мактабларда 1921 йилнинг ўзида 410 киши ўқиши ва ёзишни ўрганди. 1923 йилга келиб катта ёшдагилар учун 20 та саводсизликни тугатиш мактаблари очилиб, уларга 767 киши жалб қилинди. Порсу, Хўжайли, Кўнғирот ва Алиэли туманларида қозоқ ва туркман тилларида ҳам ана шундай мактаблар ташкил қилинди. Умуман республика бўйича 1920-1924 йиллар давомида 1800 дан ортиқ аҳоли саводсизлигини тутгатган эди.

ХХШЖ ҳукумати халқ маорифини қўллаб-қувватлаш мақсадида имкон даражада маблағни йилдан-йилга ошириб борди. Агар 1922 йилда шу максад учун ажратилган маблағ 42,2 минг сўмни ташкил қилган бўлса, 1924 йилга келиб 253 сўмга (олтин ҳисобида) етди. Шунингдек, республикада маориф учун хайрия жамғармалари тўплаш ҳам йўлга қўйилди.

Лекин республика маориф тизимида малакали кадрлар етишмасди. Бу муаммони хал қилиш учун, РСФСР ва Туркистон АССРда бўлганидек, ХХШЖда ҳам қисқа курслар ва маҳсус ўкув юртлари қўплаб ташкил этилди. 1920 йилда Хивада ташкил қилинган муаллимлар тайёрлаш уч ойлик курсини 40 киши тамомлади, 1921 йилда 100 киши, 1922 йилда эса 92 киши битказиб, мактабларга йўлланма олдилар. Бироқ қисқа курсларни битириб чиқсан бу муаллимлар ўқувчиларни фақат ўқишга ва ёзишгагина ўргата олар эди, холос. Чуқур билим беришга уларни малакаси етишмасди. Бунинг учун эса, олий таълимни ташкил этиш ва уни ривожлантириш зарур эди.

1921 йил сентябрда Хивада очилган Халқ университети республика маданий ҳаётида катта воқеа бўлди. Халқ хўжалигининг турли соҳаларига кадрлар тайёрлаш учун ташкил этилган бу университетда ўқиши 3 йилга мўлжалланган бўлиб, дастлабки йилда унга 83 нафар маҳаллий ёшлар қабул қилинди. 1922 йилдан бошлаб, Хивада қисқа муддатли курслар ўрнига уч йиллик муаллимлар семинарияси очилди. 1923 йилга келиб, булар педагогика техникумига айлантирилди.

1923 йилда РСФРдан Хоразмга маҳаллий тилни биладиган 23 нафар ўқитувчи юборилди. Улар Оренбург шаҳрида маҳаллий ўкув юртини тамомлаган мутахассислар эди. Яна 16 нафар ўқитувчи шартнома асосида ишлаш учун Хоразмга келди.

Шу билан бирга Хоразм Республикасининг бир қатор ўкувчи ёшлари Марказий Осиё ва Россиянинг марказий шаҳарларига ўқишга юборилдилар. Чунончи, 1923 йилда Тошкент,



Москва, Қозон, Оренбург ва бошқа шаҳарларга Хоразмдан 70 нафар, 1924 йилда эса 150 дан ортиқ йигит ва қизлар турли ихтисосликлар бўйича ўқишига юборилган эди.

Ушбу билим масканларида таҳсил олган ёш йигит-қизлар келажакда элимизга муносаб фарзандлар тайёрлаб, етказиб берадиган устоз мураббий бўлиб етишдилар.

Устоз мураббийлардан Хоразм Маориф ва маданият нозири Мулла Бекчан Раҳмонов, биринчи ўқитувчилардан Юсуф Аҳмедов, Ганижон Отажанов, Матёқуб Ражабов, Олланазар Худайназаров, Ҳусайн Исмоилов, Қурёз Матжонов, Ҳадича Бекчурина, Г.Бекчурина, П.Давлетов, Саодат Салимова, П.Паратов, Ҳ.Атажанов, Ҳ.Искандаров, П.Абдуллаев, А.Рахманов, О.Юсупова, Т.А. Роотс, Г.М. Бехер, Раҳим Назарийларни ҳукуматимиз ва халқимиз эъзозлаб ҳозирги кунларда “Халқ таълими” музейида уларнинг суратларини, шахсий хужжатларини бир жойга жамлаб ҳаёт йўлларини акс қилдирувчи бурчаклар ташкил қилинган.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Аҳмад Муҳаммад Турсун. Шарқ донишмандлари ҳикматларидан. — Т.: “Шарқ”, 2006.
2. Гулнор ал-Фарғоний. Мадрасаларда қандай ўқитилган? “Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетаси”, 27 июн, 6-бет. йили
3. Полвонниёз ҳожи Юсупов. Ёш хиваликлар тарихи. — Урганч, 2000.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА ЗЗ-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(3-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фаррух Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.10.2021

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000